


## XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

### Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### Korxona va tashkilotlar soni



(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

**Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni**  
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Mas'uliyati cheklangan jamiyat**


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



### Aktsiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aktsiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aktsiyadorlik jamiyati hisoblanadi.


Aktsiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aktsiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aktsiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aktsiyalar haqini batamom to'lamagan aktsiyadorlar, aktsiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aktsiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aktsiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aktsiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-iyun oylarida, birlikda)



**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar - iyun oylarida, birlikda)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi**  
(2021- yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi %)




2021- yilning yanvar-iyun oylarida 3 188 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 2 673 ta, oilaviy korxonalar 233 ta, xususiy korxonalar 128 ta, muassasalar 96 ta va boshqalar 58 tani tashkil etdi.

**Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi faoliyati bilan shugʻullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi**  
(1- iyul holatiga koʻra)




**Sanoat yoʻnalishida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(2021- yil 1- iyul holatiga koʻra, birlikda)



2021- yil 1- iyul holatiga koʻra sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 9 093 tani tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 17,2 % ga oshdi.

Jami sanoat korxona va tashkilotlari soni koʻpayishining asosiy omili ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 17,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,1 %), togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 25,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,6 %), elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashda – 8,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda – 18,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %) oʻsishidir.

### Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3 288 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,1 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili fuqarolik obyektlarini qurishda – o'tgan yilga nisbatan 12,4 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,0 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida – 14,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 29,8 %) hamdabino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan – 9,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 62,2 %) o'sishidir.


### Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 11 414 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,5 % ga oshdi.

Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 26,6 % ga (jami savdodagi ulushi 7,1 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashda o'tgan yilga nisbatan – 22,8 % ga (jami savdodagi ulushi 65,3 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 28,2 % ga (jami savdodagi ulushi 27,6 %) o'sishidir.



**Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**  
(2021- yil 1- iyul holatiga koʻra, birlikda)



**Yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**  
(2021- yil 1-iyul holatiga koʻra, birlikda)




2021- yil 1- iyul holatiga koʻra yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 927 tani tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 12,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni koʻpayishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish boʻyicha xizmatlar – 12,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,3 %), yashash boʻyicha xizmatlar – 11,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,7 %) oʻsishidir.



**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**  
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni 595 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,4 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar sonidan nashriyotchilik xizmatlarida o'tgan yilga nisbatan – 16,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 8,4 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlarida o'tgan yilga nisbatan – 10,4 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 30,4 %), aloqa xizmatlarida – 17,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 44,6 %), axborot sohasidagi xizmatlarda o'tgan yilga nisbatan 17,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,4 %), kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlarda o'tgan yilga nisbatan – 12,5 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 4,5 %) o'sgan.

Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlarda – 100,0 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,7 %) tashkil etadi.

### Oilaviy korxonalar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra 2 976 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 382 taga yoki 14,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 801 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 441 taga yoki 18,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-iyun oylarida 233 ta yangi oilaviy korxonalar tashkil etildi.

### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra 28 151 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 4 727 taga yoki 20,1 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 26 198 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 4 683 taga yoki 21,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar - iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 673 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 560 taga kamayganini yoki 82,7 % ni tashkil etganini ko'rishch mumkin.




**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni**  
(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Andijon viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxona va tashkilotlar soni**  
(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra 387 tani tashkil etib, ulardan 369 tasi yoki 95,3 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 45 taga yoki 13,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 25 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning  
davlatlar kesimida soni**  
(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- y.	2018- y.	2019- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Jami</b>	<b>159</b>	<b>189</b>	<b>260</b>	<b>324</b>	<b>369</b>
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5	9	20	25	23
Sanoat	121	142	166	188	204
Qurilish	8	7	14	21	24
Savdo	7	16	27	39	55
Tashish va saqlash	3	2	2	3	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	6	7	9	10
Axborot va aloqa	-	-	3	4	4
Sog'lashni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	1	1	5	5
Boshqa turlar	7	6	20	30	40


**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(202- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni  
(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>369</b>	<b>258</b>	<b>111</b>
shaharlar:			
Andijon sh.	148	91	57
Xonobod sh.	19	14	5
tumanlar:			
Andijon	32	24	8
Asaka	20	15	5
Baliqchi	7	4	3
Bo'ston	7	7	0
Buloqboshi	15	12	3
Jalaquduq	14	8	6
Izboskan	7	5	2
Ulug'nor	6	4	2
Marhamat	14	7	7
Oltinko'l	19	11	3
Paxtaobod	8	6	2
Xo'jaobod	14	11	3
Shahrixon	27	20	7
Qo'rg'ontepa	11	11	0

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni**  
(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida soni**  
(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra ko'rafaoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamiidagi ulushi Andijon shahrida 35,4 %, Asaka 7,4 %, Andijon 6,9 %, Shahrixon 6,8 %, Izboskan 5,0 %, Oltinko'l 4,7 %, Baliqchi 4,6 %, Xo'jaobod 4,4 %, Qo'rg'ontepa 4,4 %, Marhamat 4,2 %, Paxtaobod 4,1 %, Jalaquduq 3,8 %, Buloqboshi 2,8 %, Ulug'nor 1,8 %, Bo'ston 1,7 % tumanlari va Xonobod shahri 2,0 % ni tashkil etadi.




**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi – xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni o'sib borishi, eng avvalo mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

### Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni (2021- yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)




2021- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Bo'ston (22,8 %), Qo'rg'ontepa (14,6 %) Andijon (13,7 %), Shahrixon (11,6 %), Andijon shahri (9,4 %), Asaka (9,4 %), Izboskan (4,7 %), Baliqchi (3,0 %), Buloqboshi (2,6 %), Oltinko'l (2,2 %), Paxtaobod (1,7 %) Xonobod shahri (1,3 %), Jalaquduq (1,3 %), Marhamat (1,3 %) va Xo'jaobod (0,4 %) tumanlari ulushiga ega.

### Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2021- yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)



Ўтган йилга нисбатан% да



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** - ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining % dagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.